



## KOGNITIV KOMPETENSIYANING TALABALAR XAYOTIDAGI RO'LI VA UNING MOHIYATI

*Nishonov I.A.*

*“University of economics and pedagogy” NOTM  
Filologiya kafedrasi mudiri*

**Tayanch soʻzlar:** kompetensiya, induvidiallik, professional taʼlim, oily taʼlim, oʻqituvchi talablari.

**Ключевые слова:** компетентность, индивидуальность, профессиональное образование, семейное образование, требования учителя.

**Key words:** competence, individuality, professional education, family education, teacher requirements.

Hozirda Oʻzbekiston Oliy taʼlimining taʼlim standartlari oʻqituvchi va oʻquvchi kompetensiyasiga qaratilgan taʼlimiy dasturlarni yuksak eʼtibor bilan ishlab chiqish zarurligini belgilaydi. Taʼlimiy dasturlarning qay darajada mohirona ishlab chiqilgani oʻqituvchi va talabalarda zaruriy kompetensiyani shakllantirish uchun hizmat qilishi kerak. Bu asosan, Oliy taʼlim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga taʼlim berishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvga oʻtish, kasbiy tayyorgarlik darajasini ish beruvchilar tomonidan ishlab chiqilgan talablarga va talabalarining shaxsiy taʼlim ehtiyojlariga toʻliq javob beradigan darajada taʼminlash zaruratini toʻldirib beradi.

“Kompetentlik” tushunchasiga olimlar, mutaxassis va tadqiqotchilar tomonidan bir qator taʼriflar berilgan. Ularni umumlashtirgan holda kompetentlikni muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga umumiy qobiliyat va kasbiy tayyorgarlikda namoyon boʻluvchi bilim, tajriba va koʻnikmalarga asoslangan integrallashgan bir qator sifatlar majmui deb taʼrif berish mumkin. Fikrimizcha, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari oʻzaro bogʻliq boʻlib, bilim, malaka va koʻnikma tushunchalarini oʻzida mujassamlashtiradi, shaxsning maqsadga yoʻnaltirilganligi, muammolarni chuqur his qila olishi, sinchkovlikni namoyon etishi, kreativ fikrlashga ega boʻlishi kabi sifatlarni oʻz ichiga oladi.[1]

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar o'rta ta'lim uchun malakali kadrlarni yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan raqobatdosh mutaxassis sifatida rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib turibdi.

Zamonamizning hozirgi xolatida kadrlarning bilim va malakalariini yangilashga bo'lgan ehtiyoj yuqori suratlarda o'smoqda: dunyo ilm-fanining talablariga mos kadrlarning ilmiy dunyoqarashini modernizatsiya qilish sikli 3-5 yilni tashkil etib, yanada qisqarishda davom etmoqda. Bu "yaqin kelajakda iqtisodiy jihatdan faol aholining qariyb 90 foizi ta'lim olish jarayonida ham, butun hayoti davomida ham kognitiv faoliyatni olib boradi. Insonning kognitiv faoliyati jamiyatning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishining asosiy omiliga aylanadi va zamonaviy dunyoda davlatning obro'si va o'rmini belgilaydi" (M.P.Karpenko)[2].

Hozirgi zamon talabida jamiyatimizda o'zimizning yoki boshqa davlatlarning rivojlanish tendensiyasini faqatgina uning texnik holati emas, balki mutaxassis-kadrlar tayyorlanayotgan oliy ta'lim muassasalarining kasbiy kompetentlikka asoslangan ta'limiy dasturlari ham belgilaydi. Talabalarning dunyoqarashini, ijodiy fikrlashini normallashtirish orqali "kuch - bilimda" ta'limiy modeldan "ta'lim - bu tadqiqot va kelajak" modeliga o'tish zarurati kelib chiqdi. Ushbu zarurat insoniyat ongining moslashuvchanligi, ijodiy ishlash qobiliyatini rivojlantirish va refleksga moyilligini o'z ichiga oladigan jarayondir.

Professional ta'limda kadrlarni yetishtirishda kompetentsiyaga asoslangan va qaratilgan g'oya – talabalarga belgilangan kasbiy topshiriqlarni ijobiy hal qilish imkoniyatida ko'rsatib o'tilgan ta'limning jarayondagi amaliyotlarga yo'naltirilgan natijasi sifatida mutaxassislik kompetentsiyalarini rivojlanishini hisobga oladi. Shuning uchun kasbga yo'naltirilgan har qanday tayyorgarlik bo'lajak mutaxassis – talabalar tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan samarali intilishlar va kasbiy jarayon majmuasiga aylanishi zarur. Chunki, bunday jarayonni oliy ta'limga ya'ni, professional faoliyatga yaqinlashtirish yuqori natijalar beradi.

Ko'pgina mualliflarning fikriga ko'ra, kognitiv kompetentsiya kasbiy va maxsus kompetentsiyalarni rivojlantirish samaradorligini ta'minlaydi, bu esa uni rivojlantirishni zamonaviy ta'limning ustuvor vazifasi deb hisoblash imkonini beradi. Kognitiv kompetentsiya J.A.Mardonqulov, A.A.Ibragimov, G'.A.Nafasov, J.S.Otepbergenov, K.Kudratov, A. V. Xutorskiy, E. R. Antonenko, A.Gilev, E. V. Vyazova, N. I. Samoylova, O. V. Xaritonova kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganish obyekti bo'lgan. Kognitiv kompetentsiyani tavsiflab, ko'plab mualliflar, qoida tariqasida, kognitiv jarayonning samarali



borishini ta'minlaydigan bilimlar, kognitiv ko'nikmalar va shaxsiy xususiyatlar majmuasini o'z ichiga olgan integrativ tuzilishini ta'kidlaydilar.[3]

Bir narsani ta'kidlashimiz zarur. Talabalar orasida kompetensiyalar faqatgina, bilim, malaka, ko'nikmalardan tashqari motivatsion talablarni ham qabul qiladi. Chunki, kompetentlik turli faoliyatlarni bajarishda yuzaga kelgan ijtimoiy-psixologik muammolarni xal qilishda muhim ahamiyat kasb qiladigan mohiyat sifatida o'rin egallagan.

Kompetensiyaning muhim shartlaridan biri bilim va tajribadir. Bu kasbga doir turli muammolarni yechish usullari orqali soha mutaxassisleri tomonidan faoliyati davomda erishilgan individual harakatlarning butunligiga erishish hisoblanadi.

Rus tilshunosi I.I. Lavashova kognitiv kompetentsiya tuzilishini shaxsning asosiy ko'rsatkichlari bilan bog'laydi. Natijasini quyidagicha tarkibiy qismlar bilan taqdim etadi :

- √ malakani ko'rsatishga tayyorlik (ya'ni motivatsion komponent);
- √ kompetentsiya mazmuni (ya'ni kognitiv komponent) bo'yicha bilimlarga ega bo'lish;
- √ turli xil standart va nostandart vaziyatlarda (ya'ni, mavzuga asoslangan amaliy komponent) kompetentsiyani namoyish etish tajribasi;
- √ kompetensiyaning namoyon bo'lishi jarayoni va natijasini hissiy-irodaviy tartibga solish.[4]

Lavashovanning bu fikrlari bugungi kun talabiga mos tushadi. Chunki, rivojlanayotgan ta'limiy jarayonda kompetensiyaning namoyon bo'lishi jarayoni va natijasini hissiy-irodaviy tartibga solish muhim masala bo'lib qolmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida mavzuga asoslangan amaliy komponentlarni namoyish etish tajribasi kadrlardagi asosiy kamchiliklardan biri sanaladi. Ushbu komponentlarga xos talablarning har qanday sohada to'liq bajarilishi ilm-fan rivojlanishidagi inqilob bo'ladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Kompetentsiya mazmuni (ya'ni kognitiv komponent) bo'yicha bilimlarga ega bo'lish talabalarda tanlagan sohasining professional mutaxassis bo'lishini ta'minlaydi.

A.B.Хуторской ning “Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования” nomli qo'llanmasida rus olimi I.A. Bobikina ta'lim va kognitiv kompetentsiyani quyidagicha tuzadi:

- √ kognitiv, o'quvchining sodir bo'layotgan voqealarga kognitiv munosabatining individual o'ziga xos faol usullarini aks ettiruvchi g'oyalar, qarashlar, bilimlar tizimi sifatida tushuniladi. Ushbu komponentning asosiy natijasi - yangi tajribani mustaqil ravishda o'rganish, mustaqil

- ta'limga bo'lgan ehtiyoj, o'quv materialini o'zlashtirish texnikasi va vositalari egalik, yangi bilimlarni "kashf qilish", faol kognitiv pozitsiya;
- √ operatsion faoliyatli, mustaqil bilim olsh qobiliyatlari, shuningdek, ma'lumotlarni o'zlashtirish, saqlash va qayta ishlash qobiliyatini ta'minlaydigan va o'z-o'zini tarbiyalash to'g'risida hosil bo'lgan bilimlar asosida aniq ta'lim muammolarini hal qilishga qaratilgan kognitiv faoliyat usullaridan iborat bo'lgan faoliyat.
  - √ Ushbu komponentning natijasi quyidagilar bilan belgilanadi: o'quv faoliyatining ko'nikmalari va usullariga ega bo'lish, aqliy faoliyat ko'nikmalari, semantik tahlil qilish, faoliyatni rejalashtirish; uni boshqarish qobiliyati; o'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya, tanqidiy fikrlash va boshqa texnikalarni egallash;
  - √ qiymatli-semantik, motivlar, qiziqishlar, qadriyatlar tizimi bilan belgilanadigan - bilimlarni qo'llashni ta'minlaydigan kognitiv kompetentsiya ko'rsatkichlari, unga tayanib, talaba o'z faoliyatini amalga oshirishga muvaffaq bo'ladi.[5]

Kognitiv kompetensiyalar asli nima? U pedagogic faoliyatda nima uchun zarur? degan savollar ham uchrab turadi.

Kognitiv kompetensiya – biror bir sohada berilgan vazifani bajarish uchun mavjud axborotni qayta ishlash va sintezlash bilan bog'liq bo'lgan ta'limiy jarayonda namoyon bo'ladi va zaruriy tajribalarni ishlatishda kerak bo'ladi.

Kognitiv kompetensiyaga oliy ta'limda o'quv jarayonida orttirilgan rasmiy bilim va malakalar, shu qatori, talabaning xayotiy tajribasi va dunyoqarashini rivojlantirishga asoslangan boshqa yo'nalishlardagi norasmiy ijtimoiy-bilimlar va malakalari kiradi. Mavzuni yoritishda kognitiv kompetensiya deganda talabaning o'zini o'zi rivojlantirish, tarbiyalash, mustaqil ta'lim orqali izlanishga, shaxs sifatida dunyoqarashini va kasbiy bilimlarini o'sishi uchun ta'minlaydigan birlamchi insoniy sifatni tushunamiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bilim sohasida rivojlanayotgan har qanday shaxs avvalo, o'z-o'zini tarbiyalash mexanizmini ishlab chiqishi, dunyoviy tajribalar orqali o'z faoliyatidagi maqsadini o'z kuchidan kelib – chiqib tanlashi va o'sha sohani induvidial qabul qilishi, tanlagan sohasidagi harakat dasturini tayyorlashga o'zining shaxsiy munosabati, shaxs sifatida o'z-o'zini nazorat qila olish, o'zini o'zi real ta'limiy shartlar bilan baholashi va o'zi tanlagan sohani yoki biror bir faoliyatini kognitiv tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

#### Adabiyotlar:

1. Mallaev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2000. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. Анализ зарубежного опыта // М.: Знание, 1989 / Новое в жизни,



науке, технике. Сер. « Педагогика и психология ». № 6. Шамшиева Н.Н. Стратегия инновационного развития высших учебных заведений в условиях интеграции « ВУЗ-производство ». Монография. Т.: "Iqtisodiyot", 2016. S.156. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005.

2. Карпенко, М. П. Когномика / М. П. Карпенко. – М.: СГА, 2009. – 225 с.

3. G. A. Amanova. Talabalarining kognitiv raqamli kompetensiyasi: mohiyati va tuzilishi. "Raqamli didaktika va madaniyat: zamonaviy tendensiyalar, yondashuvlar, yechimlar" Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yil 17-aprel. 3-4 bet

4. Лавашова И. И. Особенности учебно-познавательной компетенции старших дошкольников [Текст] / И. И. Лавашова // Вектор науки ТГУ. – Томск, 2011. – №2(5).

5. Iqtibos: G. A. Amanova. Talabalarining kognitiv raqamli kompetensiyasi: mohiyati va tuzilishi. "Raqamli didaktika va madaniyat: zamonaviy tendensiyalar, yondashuvlar, yechimlar" Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yil 17-aprel. 4 bet

6. Abdullayev, B. (2023 yil, iyun). Lingvistikada matn tushunchasi. Ko'p tarmoqli tadqiqotlar va ta'lim bo'yicha akademik xalqaro konferentsiyada ( 1-jild, № 9, 13-15-betlar).

7. Абдуллаев Б. Х. Дискурс ва унинг рекламадаги ўрни //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 594-600.

8. Abdullayev, B. (2024). Bozor munosabatlarida nutqiy aktning bosqichlari. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2(2), 86–90. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/28373>

#### РЕЗЮМЕ

Bugungi kun ta'lim tizimida talabalarining mustaqil ta'lim o'rganishi va dunyoqarashini rivojlanishida kognitiv kompetensiyaning o'rni aohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada ana shu mavzuga oid mulohazalarni tahlil qilamiz.

#### РЕЗЮМЕ

В современной системе образования роль познавательной компетентности в развитии самостоятельного обучения и мировоззрения учащихся становится все более важной. В этой статье мы разберем комментарии на эту тему.

#### SUMMARY

In today's educational system, the role of cognitive competence in the development of independent learning and worldview of students is becoming increasingly important. In this article, we will analyze the comments on this topic.